

## ARXITEKTURADA QALAM TASVIR VA RANGTASVIR JOZIBASI

**Shahlo Jumaboyeva**

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv  
va texnologiyalar universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qalamtasvir va rangtasvirning Arxitektura yo'nalishida muhim o'rinnegallashi, hayotga ham tadbiq qilishni bilishlari kerakligi, ranglar uyg'unligini tushunishlari, binoning tashqi ko'rinishida ranglarning ahamiyati borligi, ijodkor yoshlarning iqtidorlarini shakllantirishda rasm chizishning o'rni borligi, haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Annotation :** *This article provides information that pencil and painting should occupy an important place in the architectural field, be able to apply them to life, understand color harmony, that colors are important in the appearance of a building, that painting plays an important role in shaping the talents of creative youth.*

**Аннотация :** В этой статье представлена информация о том, что карандаш и живопись должны занимать важное место в архитектурном направлении, уметь применять их и к жизни, понимать цветовую гармонию, что цвета имеют значение во внешнем облике здания, что живопись играет важную роль в формировании талантов творческой молодежи.

**Tayanch so'zlar :** *Tasviri san'at, borliq, rang, rasm, qalamtasvir va rangtasvir, arxitektura, rassom, ijod, San'at, asar, perspektiva, oq, qora.*

**Key words :** *Fine masterpiece, perspective, white, black.*

**Ключевые слова :** *Изобразительное искусство, бытие, цвет, изображение, живопись, arts, existence, color, image, pencil and painting, architecture, artist, creativity, art,*

*архитектура, художник, творчество, искусство, шедевр, перспектива, белый, белизна, чернота.*

Atrofimizdagi jamiki narsalar ranglar jilosi bilan bog'liq. Borliq shunchalik murakkab yaralgaligini bir isbotiga ranglarni ham keltirsa boladi. Go'yoki borliqdagi manzaralarning ranglari shunchalik mahorat bilan tanlangandek, biri birini to'ldirib turadi. Ranglarning ham o'z tili va dunyosi mavjud. Bu dunyoning

qamdayligini rassomlar ko‘proq bilishadi. Bu tilni tushunish va hayotda ishlata olishni bizga qalamtasvir va rangtasvir darsligi va Mutahasislari tomonidan o‘rgatiladi.

Tasviriy san’at — o‘quvchilarda borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal o‘zlashtirish, yosh rassomlarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog’oz yuzasida jismlarning asl shaklini yuksak mahorat bilan to‘g’ri tasvirlash uchun tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo‘llash — naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib, rasm chizishni o‘rganish zamr. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlami bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bolishi va o‘z ustida uzlusiz, betinim ishlay olishi muhimdir.[1.1]

Rasm chizishga o‘rgatish, bu — bir-biri bilan o‘zaro bog’liq bolgan quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- narsani o‘ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o‘zaro solishtirish;
- jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo‘yicha farqlay bilish;
- rasm chizish mashg‘ulotlarida e’tiborli boTish, fikrlab, jismlaming shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatish.[1.2]

Arxitekturaga qiziqishi bo’lgan va shu yonalishda talim olib borayotgan yoshlar Qalamtasvir va rang tasvirning mano mohiyatini bilishlari zarur. Sababi ular qurayotgan va loyihalanilayotgan binolar atrof muhitga ham o‘z tasirini o’tkazadi, va insonlarga ijobiy yoki salbiy tasir korsatishi ham mumkin. Qalam tasvir va rang tasvir fani orqali talabalar artofni kuzatishni,jismlarni taqqoslashni,ranglarning jilosini ko‘rishni va hayotga e’tibor berishni boshlashadi.Bundan chiqdi Qalam tasvir va rang tasvir fanini hayotga ham bogliq fan deb aytasak boladi. Rassomlar va Arxitektrlar ijodkorlar sanaladi. Ijod haqida Henri Matisse shunday degan : “Ijod- bu jasoratdir”. Ijodkorlar ijod qilishar ekan ularga ulkan jasorat va sabr kerak bo’ladi.Yaratilayotgan asar ommaga taqbiq qilinayotgan vaqtida turli hil tanqiqlar u maqtovlar bo’ladi.Ijodkor har qanday ijobiy va salbiy fikrlarga tayyor turishlari va o‘zlariga yoqadigan asarni chizishlari kerak. Andy Warhol San’at haqida shunday degan : “San’at nima ekanligini odamlar hal qilgunicha,u allaqachon san’at bo’lib qolgan bo’ladi.”

Uyg‘onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida shunday degan edi: «Yoshlar o‘zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari

lozimdir».[1.3]. Ushbu jumlalar Arxitektrlar uchun ham Qalamtasvir va Rangtasvir fani muhimligini yana bir isboti bo'la oladi.Xozirgi kunda barcha narsalar zamonaviylishib ketganki rassomlarga extiyoj yo'qdek.Arxitektura yo'nalishida ham zamoviy texnikalardan foydalanishadi.Shuning uchun ham yoshlar menga rasm chizishni o'rganishim kerak emas deb hisoblashadi.Lekin bu xató qaror.Ijod bu qalbdan yaratilgan asar, unda bo'yoqlarning nafisligi,r anglardan mahorat bilan foylana bilish, asardagi elementlar kampazitsion jihatdan mosligi, va mano mazmunliligi.To'g'ri xozirgi kunda zamonaviy ijod turlari ham mavjud.

Arxitektura yo'nalishida taxsil olayotgan talaba yoshlar ham bularning barchasini bilishlari kerak.Shunda ularning ijodlari va Qurilayotgan binolari betakror va mukammal ko'rinishga ega bo'ladi. Muhandislar uchun yana bir muhim bilishlari kerak bo'lgan qonun bu Perspektiva qonuni ya'ni narsani o'ziga qarab, xotira va tasawurdan rasm chizishga orgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalalarini nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega. Buyum tekisligida jismni haqqoni tasvirlash uchun, uning bizga korinib turgan qismi, undagi xos bolgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruksiya jihatdan tuzlishi.
2. Nisbati.
3. Hajmi.
4. Qanday materialga ega ekarligi.
5. Fazoda joylashuvi.

Bizni orab turgan atrofimizdag'i barcha buyumlar tasviriy san'atning asosiy qonunlaridan biri bolgan perspektiv qisqarishga ega.[1.4]

Uyg'onish davrining buyuk siyomosi, italiyalik mashhur rassom va olim Leonardo da Vinci perspektivada uch yo'nalish borligini aniqladi. Birinchidan, bir xil kattalikdag'i narsalar uzoqlashtirilgan sari, bir to'g'ri chiziq bo'yicha kichrayib borishini o'rganib, buni chiziqli perspektiva deb nomladi. Ikkinchidan, narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlami ta'siri ostida rangi o'zgarib borishini aniqladi. Uchinchidan, narsalarning chegaralari chizuvchidan uzoqlashishi natijasida asta-sekin xiralashib borishini kuzatdi. Ushbu ma'lumotlar asosida u "Perspektiva tasviriy san'atning rulidir" deya yozgan edi.[2.3].

Perspektiva qonunida ranglar ahamiyati ham muhim ro'l o'ynaydi.Ranglar haqida Leonardo da Vinci shunday deydi : " Oq – barcha ranglarning uyg'unligi, qora esa

ularning yo'qligi ". Pierre-Auguste Renoir esa qora rang haqida shunday degan: "Qora ham rang. Bu juda kuchli va jiddiy rang".

Bo'lajak arxitektorlar estetik tarbiyasi, badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga borliqni tasvirlash uchun tasviriy san'at asoslarini chuqr egallash, haqqoniy rasm chizish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifasi turadi. Bu vazifani hal etish faqatgina talabada ko'rib-kuzatib tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish, tasvirlash malakalarini egallash orqali yechiladi. Mutaxassis tasvirlash san'atining nafaqat amaliy bilimlarini balki, tasviriy san'atning nazariy asoslarini puxta egallashlari kerak. Zeroki, dunyo tan olgan, o'zidan o'lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk musavvir Leonardo da Vinci "Amaliyotga ilmsiz mehr qo'yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o'xshaydilar, chunki ular qayoqqa ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o'rgan, so'ngra esa shu ilm orqasidan tug'ilgan amaliyotga murojat qil" deb bejiz ta'kidlamagan edi.[2.1]

Mukammal kompozitsiyaga erishish faqat uzoq mehnat natijasida yuzaga keladi. Bunday chizilgan tasvirdan biror-bir detalni olib tashlash yoki ko'shish mumkin bo'lmaydi. Yaxlitlik nafaqat o'zaro aloqa va kompozitsiya elementlarining bir-biriga bo'ysunishi bilan ya'ni qo'shimcha tarzda aloqa va o'zaro bog'lanishlar qonuniy va haqqoniy tarzda ifodalanishi lozim.[2.2] .

Arxitektura yo'nalishi, qalamtasvir va rangtasvir, dizayn bilan birgalikda me'moriy shakllar uyg'unligini ham bilishlari muhim. Shakllarning ham turlari va ma'no mazmunlari mavjud. "ARXITEKTURA SHAKLLARINI UYG'UNLASHTIRISH VA BEZASH" kitobida to'liq yoritib berilgan.

Me'moriy shakllar uyg'unligi va mutanosiblik nazariyasi - bu me'moriy san'atning asosini tashkil qiluvchi, me'moriy obyektlarning hajm-fazoviy va rejaviy yechimlarini shakllantiruvchi, handasaviy va miqyosiy mutanosiblikka erishishga xizmat qiluvchi uyg'unlik qonuniyatlarini o'rganishga va ularni me'morchilikda qo'llashga qaratilgan nazariyadir. Fanning predmeti esa me'morlarning ijod uslubi bo'lmish shakllar uyg'unligi va mutanosibligiga erishishning sir-asrorlari va yo'llarini o'rganishdir.[3:6]

Yildan yilga texnikalar, insonlar, fikrlar, yoshlar zamonaviylashib takomillashmoqda. Hayotda zamonaviy texnikalar sababli istalgan ishni bajarish ossonlashdi. Shu jumladan dars jarayonlarida ham o'zgarishlar va rivojlanishlar

ko‘paymoqda. Bu zamonaviylashuvning ham yomon jihatlari yo‘q emas. Arxitektura yo‘nalishidagi talabalarda ham zamoniy dasturlar va kampyuter savothonligiga bo‘lgan qiziqishlari yuqori. Shu sababli talabalar amaliy ish qilishda, va ijodiy ishlarni bajarishda layoqat qarashmoqda. Arxitektura sohasida yo‘nalishlar ko‘p, shuning uchun raqobat kuchli va raqobatdoshlar dunyoning barcha qit’alarida mavjud. Vincent van Gogh shunday degan “ Haqiqiy san’at raqobat emas, o‘zini toppish va ifoda qilish muhim.” Aynan shuning uchun bor e’tiborni raqobatga emas arxitekturaga oid bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga sarflansa yetuk arxitektor darajasigacha ko‘tarila olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Arxitektura sohasiga yuragida uchquni bor yoshlar Qalamtasvir va rangtasvir bilan birgalikda shakllar uyg‘unligini, ranglar mohiyatini bilishlari muhim. Ranglarni koproq tushunishlari, ijodiy ishlar va binolarning harakterini o‘rganishlari uchun tabiat qo‘ynida darslar shakllantirilishi kerak deb o‘layman.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. QALAMTASVIR Pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Botir BOYMETOV. 2007 .B 8-10-17
2. ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR, RANGTASVIR VA HAYKALTAROSHLIK. ABDULLAYEV SAYFULLA FAYZULLAYEVICH. 2021. B 3-44-45.
3. ARXITEKTURA SHAKLLARINI UYG‘UNLASHTIRISH VA BEZASH. A.S.URALOV, T.SH.MAMATMUSAYEV. 2015-y. B 6
4. Xasanovich, H. A., & Axadjon o‘g‘li, A. A. ISLOMIY INVESTITSIYA FONDLARI VA ULARNI BOSHQARISH.
5. Rashidovich, X. M., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). ISLOM MOLIYASIDA RISKNI MINIMALLASHTIRISH. “ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA, (8-1), 122.
6. Xusanovich, A. O., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). IV-YO ‘NALISH: ISLOM MOLIYASIDA FAOLIYAT KO‘RSATUVCHI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH: OLIY TA’LIM MUASSASALARI BILAN ILMIY HAMKORLIK ISLOM MOLIYASIDA FAOLIYAT KO‘RSATUVCHI MUTAXASSISLAR

TAYYORLASH. “ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA, 109.

7. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 294-298.
8. Muratovich, M. F., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARING ROLI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 237-240.
9. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINING O 'SISHIDA FDI NING ROLI. *University Research Base*, 691-694.
10. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Murotovich, M. F. (2024). O 'ZBEKISTON KELAJAGINI SHAKLLANTIRISHDA JSTNING HAL QILUVCHI ROLI: MINTAQALAR BO 'YICHA BARQAROR VA INKLYUZIV RIVOJLANISH. *University Research Base*, 498-502.
11. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
12. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
13. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Tursunboy o‘g‘li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 290-293.
14. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O 'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 271-273.
15. Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 333-338.
16. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 60-64.

17. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.
18. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO 'G 'RI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.